



**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI YO‘NALISHI TALABALARIDA  
QOBILIYATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI VA  
METODOLOGIK ASOSLARI**

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti,  
“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi  
talabasi Marifjonova Mohigul Bo‘ribov qizi*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada umumiy psixologiyaning fundamental tushunchalaridan biri bo‘lgan qobiliyat masalasi keng ko‘lamda tahlil qilinadi. Maqolada qobiliyatning tarkibiy qismlari, uning layoqat bilan o‘zaro dialektik aloqadorligi hamda bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassislari uchun zarur bo‘lgan maxsus (lingvistik, adabiy-ijodiy, pedagogik) qobiliyatlarning shakllanish mexanizmlari ilmiy asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** qobiliyat, layoqat, iqtidor, filologiya, nutqiy mahorat, pedagogik texnika, psixologik tahlil, intellektual salohiyat, kreativlik.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье широко анализируется вопрос способностей, являющийся одним из фундаментальных понятий общей психологии. В статье научно обоснованы компоненты способностей, их диалектическая взаимосвязь с задатками и механизмы формирования специальных (лингвистических, литературно-творческих, педагогических) способностей, необходимых для будущих специалистов узбекского языка и литературы.

**Ключевые слова:** способности, задатки, одаренность, филология, речевое мастерство, педагогическая техника, психологический анализ, интеллектуальный потенциал, креативность.

**ABSTRACT.** This article extensively analyzes the issue of abilities, which is one of the fundamental concepts of general psychology. The article scientifically substantiates the components of abilities, their dialectical relationship with natural inclinations, and the mechanisms of formation of special (linguistic, literary-



*creative, pedagogical) abilities necessary for future specialists in the Uzbek language and literature*

**Keywords:** *ability, aptitude, talent, philology, verbal mastery, pedagogical technique, psychological analysis, intellectual potential, creativity.*

Insoniyat taraqqiyotining asosi uning intellektual va amaliy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Psixologiya fanida shaxsning muayyan sohadagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi individual xususiyatlar "qobiliyat" termini ostida o'rganiladi. Zamonaviy pedagogik ta'lim tizimida talabalarning professional kompetentligini oshirish ularning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olishni taqozo etadi. E.G'. G'oziyev ta'kidlaganidek, "shaxsning qobiliyati faqat faoliyat jarayonidagina tarkib topadi va namoyon bo'ladi" [1, 214-b]. Shuni ta'kidlash joizki, qobiliyatlarning shakllanishi faqat zamonaviy psixologiya bilan cheklanib qolmay, uning ildizlari Sharq mutafakkirlarining asarlaridagi psixodiagnostik qarashlarga borib taqaladi [6].

Ayniqsa, Andijon davlat pedagogika instituti kabi nufuzli dargohlarda tahsil olayotgan bo'lajak filolog-pedagoglar uchun o'z qobiliyatlarini ilmiy nuqtayi nazardan anglash, nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyatning ma'naviy yuksalishi uchun ham xizmat qiladi. Filologik ta'limda qobiliyatlarning shakllanishi o'ziga xos murakkab tuzilishga ega bo'lib, u lingvistik sezgirlikdan tortib, pedagogik mahoratgacha bo'lgan keng spektrni qamrab oladi.

**QOBILIYATLARNING PSIXOLOGIK TABIATI VA TUZILISHI.** Psixologiya fanida qobiliyatlar masalasi B.M. Teplov, S.L. Rubinshteyn va boshqa ko'plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. B.M. Teplov qobiliyatlarni uchta asosiy belgi bilan xarakterlaydi: birinchidan, bir odamni ikkinchisidan farqlaydigan individual xususiyatlar; ikkinchidan, faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishiga taalluqli bo'lgan sifatlar; uchinchidan, bilim va ko'nikmalarni egallash tezligi [2, 45-b]. Qobiliyat-layoqat asosida, tizimli ta'lim va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadigan sifatdir. Hozirgi globallashtirish sharoitida axborot muhiti yoshlarning nafaqat ijtimoiy normalari, balki ularning intellektual qobiliyatlari shakllanishiga ham psixologik jihatdan kuchli ta'sir ko'rsatmoqda [7].



Qobiliyatlar tizimli ravishda quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

- layoqat-bu genetik meros bo‘lib, markaziy nerv tizimining anatomic-fiziologik xususiyatlaridir. S.L. Rubinshteyn yozganidek: "Layoqatlar qobiliyatlar

taraqqiyotining sharti va manbai hisoblanadi, lekin tayyor qobiliyat emas" [4, 112-b]. Filolog talaba uchun kuchli xotira va tovushlarni farqlash qobiliyati asosiy layoqat bo‘lishi mumkin.

- qobiliyat-layoqat asosida, tizimli ta‘lim va ijtimoiy muhit ta‘sirida shakllanadigan sifatdir.

- iqtidor-bir nechta qobiliyatlarning shunday uyg‘unlashuviki, u insonga bir emas, bir nechta turdosh sohalarda muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi [5, 302-b].

## FILOLOG MUTAXASSISNING MAXSUS QOBILIYATLARI.

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasida professional o‘sh uchun quyidagi maxsus qobiliyatlar majmuasi shakllanishi shart:

1.Lingvistik sezgirlik va nutqiy mahorat-bu qobiliyat so‘zning etimologiyasini, uning uslubiy nozikliklarini va badiiy matn ichidagi "tovlanishini" his qilishda ko‘rinadi. R.S. Nemov ta‘kidlaganidek, intellektual qobiliyatlar insonning axborotni qayta ishlash tezligi va sifatini belgilaydi [5, 310-b]. Filolog uchun bu ona tilining ichki qonuniyatlarini intuitsiya darajasida his qilish demakdir.

2.Ekspressiv-kommunikativ qobiliyat- bu bo‘lajak pedagog o‘z fikrini mantiqiy, emotsional va grammatik jihatdan mukammal bayon etishi lozim. Bu jarayonda shaxsning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi muhim rol o‘ynaydi. V.M. Karimova bo‘lajak mutaxassisning muloqot madaniyati haqida to‘xtalib, "muloqot qobiliyati shaxsning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi asosiy omillardan biridir" deb ta‘kidlaydi [3, 89-b].

3.Gnostik va adabiy-tahliliy qobiliyatlar-bu badiiy asar tarkibidagi murakkab obrazlar tizimini va muallif g‘oyasini tahliliy (analitik) va sintezlovchi tafakkur orqali yoritish filologning asosiy qurolidir. Bu qobiliyat talabadan nafaqat bilimni, balki ijodiy tasavvurni ham talab qiladi.



**METODOLOGIK ASOSLAR VA TADQIQOT TAHLILI.** Qobiliyatlarni rivojlantirishning metodologik asosi sifatida "faoliyatli yondashuv" tamoyilini olish mumkin. Psixologiyada "mehnatsevarlik — qobiliyatning yarmi" degan qarash mavjud. 1-kurs talabalari o'rtasida o'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, qobiliyat ko'pincha qiziqish (motivatsiya) bilan bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, filolog talabalarning qobiliyatlarini aniqlashda axborot muhiti ta'sirini tadqiq etishning metodik jihatlariga alohida e'tibor qaratish, diagnostika jarayonining aniqligini ta'minlaydi [8].

Amaliy misol: Ikki talabaga Erkin Vohidov she'riyatini tahlil qilish topshirildi. Birinchi talaba she'rni shunchaki yod oldi va mazmunini aytib berdi (bilim darajasi). Ikkinchi talaba esa she'rdagi badiiy san'atlarni topish bilan birga, shoirning o'sha davrdagi ruhiy holatini va satrlar orasidagi yashirin ma'nolarni o'zining boy tasavvuri orqali talqin qildi. S.L. Rubinshteyn nazariyasiga ko'ra, bu "ijodiy tafakkur va qobiliyatning yuqori darajasi" hisoblanadi [4, 125-b].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talaba o'zbek tili tarixiga qiziqish yuqori bo'lsa, u qiyin bo'lgan eski o'zbek yozuvini (arab imlosi) boshqalarga qaraganda 2-3 barobar tezroq o'zlashtiradi. Bu psixologik jihatdan intellektual motivatsiya qobiliyatni yuzaga chiqaruvchi asosiy "katalizator" ekanini isbotlaydi.

**QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKA.** Bo'lajak o'qituvchi dars o'tish jarayonida quruq faktlarga tayanmasdan, o'quvchilarning diqqatini ohangdoshlik, ritorik savollar va pauzalar orqali ushlab tursa, bu uning didaktik qobiliyati shakllanganidan dalolatdir. Nemov R.S. fikricha, o'qituvchilik qobiliyatining o'zagi — bu o'quvchiga bilimni shunday uzatishdagi mahoratki, u o'quvchida o'sha fanga nisbatan muhabbat uyg'ota olsin [5, 315-b].

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, qobiliyatlar — bu shaxsning imkoniyatlar dunyosidir. O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisi bo'lib yetishish jarayonida talaba o'zidagi tabiiy layoqatlarni muntazam mutolaa, ijodiy izlanish va amaliyot orqali professional mahorat darajasiga ko'tarishi lozim.

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:



-talabalarning individual qobiliyatlarini aniqlash uchun psixodiagnostik testlardan muntazam foydalanish.

-o'quv jarayonida "ustoz-shogird" tizimi orqali talabalarning maxsus (ijodiy) qobiliyatlarini rag'batlantirish.

-filologik fanlarni o'qitishda nazariy bilimlarni amaliy notqlik va tahlil san'ati bilan uyg'unlashtirish.

Kelajakda barkamol avlodni tarbiyalash uchun pedagog avvalo o'zining psixologik salohiyatini va qobiliyatlar zaxirasini to'g'ri baholay olishi shart.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E.G'. "Umumiy psixologiya". Darslik. Toshkent: "Universitet", 2010. – 544 b.
2. Teplov B.M. "Psixologiya individualnyx razlichiy". Moskva: "Prosvetzenie", 1985. – 320 s.
3. Karimova V.M. "Ijtimoiy psixologiya". Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012. – 172 b.
4. Rubinshteyn S.L. "Osnovy obshchey psixologii". Piter: "Piter", 2002. – 720 s.
5. Nemov R.S. "Psixologiya". Kniga 1. Moskva: "Vlados", 2003. – 688 s.
6. Nurullo o'g'li, A. A. Sharq mutafakkirlarining asarlarida psixodiagnostikaga doir qarashlari. "Taraqqiyot", 13. 2023.
7. Vaxabova O'.T. Globallashuv sharoitida axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirining psixologik jihatlari. "Современное образование (Узбекистан)", (12(145)), 46-51. 2024.
8. O'gilxon T, V. Axborot muhiti yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirini tadqiq etishning metodik jihatlari. "Современное образование (Узбекистан)", (11 (132)), 15-22. 2023.